

## KREDIT MODUL TIZIMIDA FANLARNI INTEGRATSION YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNING AFZALLIKLARI

**G. I. Sayfullayeva**

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

**H. R. Shodiyev**

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

### ANNOTATSIYA

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir.

**Kalit so'zlar:** Integratsiya, butun, ta'lim, yondashuv, ko'nikma, tashqi integratsiya, ichki integratsiya

### KIRISH

Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari "XXI asr" ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Hozirgi kunda integratsiya atamasi dunyo bo'ylab turli sohalarni, masalan, ijtimoiy, mintaqaviy, iqtisodiy, diniy, irqiy, tashkiliy integratsiya kabi sohalarni qamrab oladigan ijtimoiy tushuncha sifatida ishlatiladi. Va o'z-o'zidan savol tug'iladi

- Integratsiya o'zi nima?
- Uning ta'lim tizimidagi ahamiyati nimada?
- Tabiiy fanlarni o'qitishda integratsiya qanday amalga oshiriladi?

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Integratsiya lotincha integratio – tiklash, to'ldirish hamda integer – butun so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, qismlarni bir butunga aylantirish uchun ularni birlashtirish, qo'shish va yoki bir-biriga almashtirish harakatidir.

✓ Ta'limni integratsiyalash orqali umumta'lim fanlarini o'qitishda fanlararo aloqalarni o'rnatish, turli ta'lim dasturlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali ta'lim mazmunining yaxlitligiga erishish va o'quvchi dunyoni bilishi va tasavvur qilishda bir tomonlama emas, balki har tomonlama rivojlanishga erishish.

✓ Fanlararo aloqadorlik (integratsiya) o'quvchini ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi, tabiatni to'g'ri va to'la anglashga, undan oqilona foydalanishga, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Zamonaviy sharoitlarda fanlarni o'qitishda ularning integratsiyasini ta'minlashga yetarli e'tibor berilmay kelmoqda.

Muammoni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar esa tegishli o'quv rejalarida ushbu fanlarni o'qitishning vaqt bo'yicha muvofiqlashtirilishi yoki fanlar mazmunini qisman uyg'unlashtirishga oid tadbirlar bilan cheklanmoqda. Uni tubdan hal qilish uchun esa, talabalar egallaydigan bilimlari yuqori sifat darajasini ta'minlovchi o'quv fanlari integratsiyasining zaruriy shart-sharoitlari, shakl, mazmun va vositalarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

O'quv fanini o'rgatishdan maqsad o'quvchini fandagi ob'yektiv yangilik bilan tanishtirish emas, balki unda sub'yektiv yangilikka ega bo'lgan bilimlarni shakllantirishdan iborat. Bu ma'noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o'quv fanlariga bo'lib o'qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash shakli sifatida qaralishi mumkin.

O'quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o'quv fanlari bo'yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma'noda qaralganda, o'quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o'zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi.


O'quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub'yektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo'lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub'yektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Fanlararo integratsiya bir necha o'quv predmetining bir biriga talluqli sohalarni ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchiga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, integratsiya O'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi.

## NATIJALAR

Ilmda yangi bilimlarning fanlararo sintez jarayoni juda sekin kechib, ba’zida u bir qancha o’n yilliklarga teng davrni qamrab oladi. O’quv jarayonida o’qituvchi bir yoki bir necha mashg’ulot, yoki hatto bir necha daqiqa ichida o’quvchini ilgari turli fanlariga oid o’zlashtirilgan bilimlarga tayanuvchi sub’yektiv yangi bilimga “olib kelishi” kerak bo’ladi


### Fanlarni integratsiyalashni 2 ko’rinishda olib borish mumkin:



Ya’ni, o’quvchiga bilimlarni tayyor holatida berish emas, balki ularning sintezi uchun tegishli shartsharoitlar yaratilishi kerak. Bu vazifani amalga oshirishning texnologik usullaridan biri, bir sohaga oid bilimlarni boshqasiga olib o’tish bilan bog’liq bo’lib, u fanlararo aloqalarni o’rnatishning asosiy mexanizmi hisoblanadi

Bu esa o’z navbatida o’qituvchidan nafaqat tezkorlikni, balki zukkolik va topqirlikni ham talab etadi. O’qituvchi o’quvchilarning qiziqishidan kelib chiqqan holda, o’rganilayotgan bilim sohasini hayotiy ko’nikmalarga bog’lay bilishi, mantiqiy fikrlashga undashi, o’quvchida nega?, nima uchun?, qanday qilib? – kabi savollarni tug’dira olishi talab etiladi.

## Fanlarni integratsiyalashning quyidagi darajalarini belgilash mumkin



### XULOSA

Mavzuviy integratsiyada ikki uch xil predmet bitta mavzuni ochib beradi. Bu darajani illyustrativ – tavsifiy deb ham atash mumkin.

- Bitta muammoni har xil predmet imkoniyatlari bilan yechish, muammoli integratsiya bo`ladi. Konseptual integratsiyada har xil o`quv predmetlarning vosita va uslublari yordamida bitta konsepsiya ko`rib chiqiladi.

- Har xil nazariyalarning o`zaro falsafiy singishi nazariy integratsiya hisoblanadi

### REFERENCES

1. G.I. Sayfullayeva // Improving the training of technical and creative and creative thinking and creative thinking in pedagogical training in higher education institutions of the astronomy using modern educational programs// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science 2022 йил
2. G.I. Sayfullayeva Мирзақандова С.Х //Определение физических параметров луны математическими методами// Лучший студент- 2022 2022 йил
3. G.I. Sayfullayeva//Problems and prospects of the introduction of information technology in the teaching of astronomy in pedagogical higher education institutions in the information age, in the history of mankind, great achievements have been made in the world of industry and

science// European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 2022  
йил

4. Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. *The American Journal of Engineering and Technology*, 2(09), 32-36.

5. Dilmurod, R., & Fazliddin, A. (2021). Prospects for the introduction of artificial intelligence technologies in higher education. *ACADEMICIA: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 929-934.

